

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI  
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH  
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM  
TASHKILOTLARI NEMIS TILI FANI O‘QITUVCHILARINI  
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA  
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NEMIS TILI FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya nemis tili fanidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovining umumiy tamoyillari, me’yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

## **I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – talabgorlarning nemis tili fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

## **III. Baholash qamrovi**

Nemis tili fani o‘qituvchilari uchun malaka sinovida jami 50 ta test savollari (mutaxassislik fanidan 35 ta, pedagogik mahorat fanidan 10 ta va kasbiy standartdan 5 ta) topshirig‘i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 105 daqiqa

(mutaxassislik fani, pedagogik mahorat hamda kasbiy standart) vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

**Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti**

*1-jadval*

| <b>Mazmun sohasi</b>                                       | <b>Baholanadigan konstruktlar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Test topshiriqlari soni</b> |
|------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|
| <b>I. NEMIS TILI</b>                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>35 ta</b>                   |
| <b>I. O'qib tushunish (1 - 15 savollar)</b>                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                |
| <b>1.1. Ilmiy-ommabop matnni o'qib tushunish</b>           | <ul style="list-style-type: none"> <li>- matnning asosiy g'oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash;</li> <li>- matnda ochiq aytilgan muhim detallarni tushunish;</li> <li>- matnda ochiq aytilmagan ma'lumotlar, fikrlar, g'oyalarni anglash;</li> <li>- matndagi fakt va fikrni farqlash;</li> <li>- ma'lumotlarni izohlash, taqqoslash va umumlashtirish;</li> <li>- matnda qo'llanilgan leksik birliklarning ma'nosini kontekstdan anglash.</li> </ul>     | 6                              |
| <b>1.2. Voqeband matnni o'qib tushunish</b>                | <ul style="list-style-type: none"> <li>- matnning asosiy g'oyasini aniqlash;</li> <li>- matnda ochiq aytilgan muhim detallarni tushunish;</li> <li>- matnda ochiq aytilmagan detallarni anglash;</li> <li>- matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish;</li> <li>- voqea ishtirokchilarini tavsiflash;</li> <li>- matnda qo'llanilgan leksik birliklarning ma'nosini kontekstdan anglash.</li> </ul>                                                                       | 5                              |
| <b>1.3. Matn yaxlitligini tushunish</b>                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>- matnning umumiy yaxlitligi va mazmuniy birligini tushunish</li> <li>- matn yaxlitligini tiklash (gaplar yoki xat boshi tartibini to'g'ri joylashtirish orqali);</li> <li>- matn strukturasi va qismlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash (kirish, rivojlantirish, xulosa);</li> <li>- matn qismlari o'rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog'lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).</li> </ul> | 4                              |
| <b>II. Tilning amaliy qo'llanilishi (16 - 35 savollar)</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                |

|                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |   |
|----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>2.1.<br/>Grammatika</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash;</li> <li>- berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash;</li> <li>- berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish;</li> <li>- berilgan gap yoki jumlaning grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish);</li> <li>- grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash;</li> <li>- berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash;</li> <li>- o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 7 |
| <b>2.2. Leksika</b>        | <ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash;</li> <li>- berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash;</li> <li>- berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash;</li> <li>- so'z yasalishi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash;</li> <li>- ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: say / tell / speak / talk);</li> <li>- leksik xatoni aniqlash ( noto'g'ri tanlangan so'zni topish);</li> <li>- berilgan kontekstga mos bo'lmagan leksik birlikni aniqlash. (collocation, register yoki ma'no nomuvofiqligi).</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 7 |
| <b>2.3.<br/>Pragmatika</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan vaziyatga mos og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash;</li> <li>- berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma'nosini anglash (literal meaning (to'liq ma'no), irrelevant interpretation, opposite meaning, exaggerated meaning);</li> <li>- berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish.</li> <li>- diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (random statement, off-topic comment, irrelevant fact, confusing remark);</li> <li>- berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (making suggestion instead of request, giving unrelated information, expressing opinion instead of asking, ignoring speaker's intent);</li> <li>- xohish yoki niyatni farqlash (giving direct order, expressing anger, asking irrelevant question, making a statement unrelated to intent).</li> </ul> | 6 |

Test topshiriqlarini tuzishda foydalaniladigan matnlarga qo'yiladigan talablar quyidagi jadvalda aks etgan:

*1- jadval*

**Matnlarga qo'yiladigan talablar**

| <b>T/r</b> | <b>Matnlar</b>            | <b>Mazmuniy talabalar</b>                                                                                                                                                 | <b>Hajmiy talablar</b> |
|------------|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
| <b>1</b>   | <b>Ilmiy-ommabop matn</b> | Standart nemis tilida yozilgan, muayyan sohaga bag'ishlangan, keng auditoriyaga (nomutaxassisga) mo'ljallangan ilmiy-ommabop matn (gazeta, jurnal yoki internet maqolasi) | 350-400 so'z           |
| <b>2</b>   | <b>Voqeaband matn</b>     | Muayyan voqea (real yoki xayoliy) tasvirlangan matn (gazeta yoki internet maqolasi yoxud badiiy asardan parcha)                                                           | 350-400 so'z           |
| <b>3</b>   | <b>Matn yaxlitligi</b>    | Standart nemis tilida yozilgan, keng auditoriyaga mo'ljallangan, muayyan muammoga bag'ishlangan matn (gazeta yoki internet maqolasi)                                      | 250-300 so'z           |

**Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

*3-jadval*

| <b>1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)</b>        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>5 ta</b>  |
|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>1.1. Kasbiy standartlar</b>                     | – pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish | 5            |
| <b>2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)</b>     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>10 ta</b> |
| <b>2.1. Umumiy pedagogika va pedagogik mahorat</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- darsni rejalashtirish va sinfni boshqarishdagi umumiy yondashuvlarni bilish;</li> <li>- darsni rejalashtirish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatga (ssenariyga) qo'llay olish;</li> <li>- darsni rejalashtirish yoki sinfni boshqarish bo'yicha qarorning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish.</li> </ul>                                                                 | 5            |

|                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |              |
|--------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>2.2. Nemis tili o'qitish metodikasi</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- nemis tili o'qitish metodikasiga oid yondashuvlar, nazariy ramkalar (<i>framework</i>) va metodlarni farqlay olish;</li> <li>- nemis tili o'qitish metodikasiga oid yondashuvlar, nazariy ramkalar va metodlarga oid asosiy terminologiyani bilish;</li> <li>- berilgan yondashuv doirasida darsga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish;</li> <li>- berilgan yondashuv doirasida vaziyatga (ssenariyga) mos harakat yoki faoliyat turini tanlash;</li> <li>- qamrab olinadigan yondashuvlar va metodikalar: Structural Approach, TBLT, PPP, Lexical Approach, Functional Approach, Communicative Approaches, Grammar-Translation, Guided Discovery, Content-Based Learning, CLIL.</li> </ul> | 5            |
| <b>Jami</b>                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <b>15 ta</b> |

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

### Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

4-jadval

| T/r | Kognitiv daraja            | Izohi                                                                                                                                   | Test soni |
|-----|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 1   | <b>Bilish va tushunish</b> | Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish | 8         |
| 2   | <b>Qo'llash</b>            | Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish                                                        | 35        |
| 3   | <b>Mulohaza qilish</b>     | Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish                                          | 7         |

### IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

### V. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

### *Nemis tili*

1. Die Deutschprofis A1. Kursbuch/Übungsbuch, Olga Swerlova. Klett Verlag Sprachen, Stuttgart. 2019.
2. Die Deutschprofis A2., Kursbuch/Übungsbuch. Olga Swerlova. Klett Kiado, Budapest. 2024.
3. Die Deutschprofis B1., Kursbuch/Übungsbuch. Olga Swerlova. Klett Kiado, Budapest. 2024.
4. Aspekte Junior B1 plus, Kursbuch/Übungsbuch. Ute Koithan. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart. 2019.
5. Aspekte neu B2, Arbeitsbuch/Lehrbuch. Ute Koithan, Helen Schmitz, Tanja Sieber, Ralf Sonntag. Klett-Langenscheidt, München. 2017.
6. Lehr- und Übungsbuch der deutschen Grammatik. Das Gelbe aktuell. Hilke Dreyer, Richard Schmitt. Hueber Verlag. 2013.
7. Deutsche Phonetik - eine Einführung. Koloman Brenner u.a. Budapest-Veszprem. 2006.

### *Pedagogika, metodika*

1. DLL 02: Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? Sandra Ballweg, Sandra Drumm, Britta Hufeisen, Johanna Klippel, Lina Pilypaityte. Klett-Langenscheidt, 2015
2. DLL 04: Aufgaben, Übungen, Interaktion. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise, Rainer E. Wicke in Zusammenarbeit mit Julia Ricart Brede. Klett-Langenscheidt, 2015
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

**Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.